

**“TASDIQLAYMAN”  
“Kiberxavfsizlik markazi”  
DUK davlat xaridlarini  
komissiyasining  
raisi**

**D. Mirsadikov**  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_.2025y.

**Kibernetika inovatsiyalar IT-parkida 2021-2024 yillardagi moliya xo‘jalik  
faoliyatini auditorlik tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar uchun**

## **Eng yaxshi takliflarni tanlab olish hujjatlari**

**Buyurtmachi: Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi  
“Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitary korxonasi**

Toshkent – 2025 y.

## **Mundarija**

<b>I.</b>	<b>Eng yaxshi takliflarni tanlab olish ishtirokchisi uchun ko‘rsatmalar-----2</b>
<b>II.</b>	<b>Eng yaxshi takliflarni tanlab olish texnik qismi-----22</b>
<b>III.</b>	<b>Eng yaxshi takliflarni tanlab olishning narx qismi-----29</b>

## **I. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish ishtirokchisi uchun ko‘rsatmalar**

### **1 Umumiy qoidalar**

1.1 Mazkur eng yaxshi takliflarni tanlab olish (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni (keyingi o‘rinlarda - Qonun) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2 Tanlov predmeti: Kibernetika inovatsiyalar IT-parkida 2021-2024 yillardagi moliya xo‘jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish.

1.3 O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi Qonuni Tanlov o‘tkazilisi uchun asos bo‘ladi.

1.4 Tanloving cheklangan qiymati 260 000 000,00 so‘m (QQSni hisobga olgan holda), jumladan:

- 2021 yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini milliy asosida to‘liq auditorlik tekshiruvini o‘tkazish **xizmatlar narxi 50 000 000 (ellik million) so‘m.**

- 2022 yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini milliy asosida to‘liq auditorlik tekshiruvini o‘tkazish **xizmatlar narxi 60 000 000 (oltmish million) so‘m.**

- 2023 yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini milliy asosida to‘liq auditorlik tekshiruvini o‘tkazish **xizmatlar narxi 70 000 000 (yetmish million) so‘m.**

- 2024 yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini milliy asosida to‘liq auditorlik tekshiruvini o‘tkazish **xizmatlar narxi 80 000 000 (sakson million) so‘m.**

Tanlovda ko‘rsatilgan g‘olibning narxi cheklangan qiymatdan oshmasligi kerak.

1.5 Xizmatlarni sotib olish uchun texnik topshiriq Tanlov hujjatlarning texnik qismida keltirilgan.

### **2 Eng yaxshi takliflarni tanlab olish tashkilotchilari**

2.1 “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi Tanlov buyurtmachisi (keyingi o‘rinlarda - Buyurtmachi) hisoblanadi.

“Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi benefitsiar oluvchi hisoblanadi.

Buyurtmachi manzili: Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 20-uy

Aloqa qiluvchi shaxs - Xaridlarni tashkil etish bo‘yicha yetakchi mutaxassis M. Suleymanov.

Telefon +998 71 203 00 21

E-mail: [m.suleymanov@csec.uz](mailto:m.suleymanov@csec.uz)

2.2 Komissiyaning ishchi organi “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o‘rinlarda - Ishchi organ) hisoblanadi.

Manzil: Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 20-uy

2.3 Sharhnomal tuzuvchi: “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi.

2.4 Eng yaxshi takliflarni tanlab olish Buyurtmachi tomonidan tuzilgan xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **3 Eng yaxshi takliflarni tanlab olish ishtirokchilari**

3.1 Tanlovda tegishli litsenziyalarga ega xalqaro auditorlik kompaniyalari, shuningdek, xalqaro assotsiatsiyalarga a'zo bo'lgan auditorlik kompaniyalari ishtirok etishi mumkin.

3.2 Qonun hujjatlariga muvofiq, kompaniyalar quyidagilar aniqlangan taqdirda eng yaxshi takliflarni tanlab olish savdolarida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi:

- manfaatlar to'qnashuvi;
- narxlarni buzish yoki ishtirokchilarni tanlash natijalarini buzish uchun ishtirokchilarni oldindan til biriktirishi;
- firibgarlik, qalbakilashtirish va korruptsiyaning namoyon bo'lishi.

Agar ushbu holatlar aniqlansa, protseduraning istalgan bosqichida eng yaxshi taklifi tanlash to'xtatilishi (bekor qilinishi) mumkin.

### **4 Eng yaxshi takliflarni tanlab olish tili, o'Ichov birligi**

4.1 Tanlov taklifi hamda ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar va hujjatlar o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar unga o'zbek tiliga to'g'ri tarjimasi ilova qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida bir nechta tillardan foydalanylганда nomuvofiqliklar aniqlanganda o'zbek tili ustunlik qiladi.

### **5 Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi**

5.1 Ishtirokchi ushbu tanlov hujjatining texnik topshirig'iga muvofiq tuzilgan elektron shaklda hujjatlar to'plamini taqdim etishi kerak.

5.2 Tanlov ishtirokchisi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun javobgardir;
- faqat bitta taklif kiritish huquqi;
- taqdim etilgan taklifni bunday takliflarni kiritish muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

5.3 Tanlov taklifi narx qismidan iborat bo'lib, u tanlov shartlariga mos kelishi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim: xizmatlar ko'rsatish qiymati, umumiyl miqdor, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va boshqalar.

Tanlov takliflari maxsus axborot portalida joylashtirilgan ma'lumotlarda belgilangan muddatgacha qabul qilinadi

Ishtirokchilarning Tanlov taklifining amal qilish muddati tanlov takliflarini topshirishning oxirgi muddati tugagan kundan boshlab kamida 90 kun bo'lishi kerak.

### **6 Tanlov takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish**

6.1 Xarid komissiyasi Tanlovning yopilish sanasini kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin (Tanlov ishtirokchisining asoslangan murojaati asosida eng yaxshi takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish), bu sana Tanlovning barcha ishtirokchilariga tegishli bo'ladi.

6.2 Xarid komissiyasi, agar taklifni taqdim etgan Tanlov ishtirokchisi Qonun va/yoki Tanlov hujjatlari talablariga javob bermasa, taklifni rad etadi.

6.3 Tijorat takliflarini baholash jarayonida xarid komissiyasining ishchi organi ishtirokchilarga eng yaxshi taklifni tanlashda ko'rsatilgan ma'lumotni tasdiqlash yoki tushuntirish uchun yozma so'rovlarni yuborishga haqlidir. Bunday so'rovlarni qabul

qilishda ishtirokchilar ishchi organga yozma ravishda javob berishlari va so‘ralgan ma’lumotni taqdim etishlari kerak. Bu jarayonda Tanlov taklifiga hech qanday o‘zgartirish kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.4 Agar Tanlov ishtirokchilarini taklifni turli valyutalarda taqdim etsalar, baholash paytida taklif summalarini 1.4-bandda aks ettirilgan tanlov hujjatlari joylashtirilganligi e’lon qilingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha o‘zbek so‘miga qayta hisoblab chiqiladi.

6.5 Tanlov hujjatlarda ko‘rsatilgan mezonlarga asosan shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan Tanlov ishtirokchisi g‘olib deb tan olinadi.

6.6 Agar Tanlov ishtirokchisining tijorat taklifida arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo‘lsa, xarid komissiyasi taklifni rad etishga yoki ularni keyingi ko‘rib chiqishning boshqa shartlarini belgilashga haqlidir, bu haqda Tanlov ishtirokchisiga xabar beradi.

6.7 Eng yaxshi taklifni tanlashning xorijiy va mahalliy ishtirokchilarini narxlarini to‘g‘ri taqqoslash maqsadida baholash jarayonida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tegishli xarajatlar (soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar) hisobga olinadi.

6.8 Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida qayd etiladi. Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida xarid komissiyasi ishtirokchining Tanlov savdosida qatnashishga yo‘l qo‘ymasligi sabablarini majburiy tartibda qayd etadi.

6.9 Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasi e’lon qilinganidan keyin eng yaxshi taklifni tanlashning har qanday ishtirokchisi eng yaxshi taklifni tanlash natijalarini tushuntirish uchun buyurtmachiga so‘rov yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi bunday so‘rovni olgan kundan boshlab uch ish kuni ichida eng yaxshi taklifni tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

## **7 Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikni ta’milash**

7.1 Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar:

- ishchi organ tarkibiga kiruvchi Tanlov takliflarining hisobini yurituvchi, ularning saqlanishi va maxfiyligini ta’minlovchi shaxslar;
- komissiya raisi va a’zolari, shuningdek Tanlov takliflarni o‘rganish uchun tuzilgan ishchi guruh a’zolari, ma’lumotlarni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a’zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirishga yo‘l qo‘yish, shuningdek, boshqa qonunga xilof harakatlar qilish;
- Tanlov g‘olibi, shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarni (miqdoriy, sifat va texnik ko‘rsatkichlar bo‘yicha) bajarmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va/yoki tuzilgan shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladi.

## **8 Boshqa shartlar**

8.1 Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar Tanlov bo‘yicha tushuntirishlar olish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.

8.2 Tanlov hujjatining shartlari o‘zgargan taqdirda, ushbu Tanlovda takliflarni taqdim etish muddati Tanlov hujjatiga o‘zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o‘n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan birga, agar e’londa ko‘rsatilgan ma’lumotlar

o‘zgartirilgan bo‘lsa, Tanlov to‘g‘risidagi e’longa takliflar taqdim etishning oxirgi muddatidan kamida uch kun oldin o‘zgartirish kiritiladi.

8.3 Tanlovda ishtirokchi buyurtmachiga eng yaxshi taklifni tanlash to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan shaklda tanlov hujjatining qoidalarini tushuntirish uchun so‘rov yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi ko‘rsatilgan so‘rovni olgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida, agar ko‘rsatilgan so‘rov buyurtmachi tomonidan takliflarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kamida uch kun oldin olingan bo‘lsa, tanlov hujjatining qoidalariga tushuntirishlarni belgilangan shaklda yuborishi shart. Tanlov hujjatlarining qoidalarini tushuntirish uning mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.

8.4 Eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirokchi tanlov takliflarini qabul qilish muddati tugagunga qadar xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan tanlov taklifiga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

8.5 Eng yaxshi taklifni tanlash xarid komissiyasi tomonidan quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- eng yaxshi taklifni tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa;

- eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirokchining taklifi tanlov hujjati talablariga yoki Qonunda belgilangan talablarga javob bermasa.

8.6 Xarid komissiyasi g‘olib bo‘lgan taklifni qabul qilishdan oldin istalgan vaqtida eng yaxshi taklifni tanlashni bekor qilishga haqli. Eng yaxshi taklifni tanlash bekor qilingan taqdirda, Buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e’lon qilishi shart.

8.8 Eng yaxshi taklifni tanlash natijalari bo‘yicha shartnoma tanlov hujjatida va eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan taklifda ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha tuziladi.

Shu bilan birga, Tanlov hujjatlariga ilova qilingan shartnoma loyihasi yakuniy emas va shartnomani tuzishda Buyurtmachi shartnoma matniga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega.

## **9 Shartnoma tuzish**

9.1. Davlat buyurtmachisi va eng yaxshi taklifni tanlab olish g‘olibi ishtirokchiga shartnoma berilgan kundan e’tiboran 10 (o‘n) ish kuni ichida shartnoma tuzishi shart.

9.2 Buyurtmachi Tanlov g‘olibi bilan narxni pasaytirish bo‘yicha muzokaralar olib borish huquqiga ega.

9.3 G‘olib tomonidan shartnomani o‘z vaqtida imzolamaganligi shartnomani tuzishdan bosh tortish sifatida baholanishi mumkin. Bunda eng yaxshi taklifni tanlashda keyingi (zaxirada – baholashda ikkinchi o‘rin) ishtirokchining maqbul taklifi ko‘rib chiqiladi.

## **II. Texnik qism**

**Kibernetika inovatsiyalar IT-parkida 2021-2024 yillardagi moliya xo‘jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar uchun texnik topshiriq**

## **1-bo‘lim. Umumiy ma’lumotlar**

- 1.1. Xizmatlarning to‘liq nomi
- 1.2. Foydalanish maqsadlari
- 1.3. Xarid qilish uchun asos
- 1.4. Buyurtmachi haqida ma’lumotlar
- 1.5. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish ro‘yxati va muddatlari
- 1.6. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish joyi

## **2-bo‘lim. Shartlar va talablar**

- 2.1. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish shartlari
- 2.2. Ishtirokchilarga talablar

## **3-bo‘lim. Xizmat ko‘rsatish natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi**

- 3.1. Kutilayotgan natija
- 3.2. Auditorlik xizmatlari natijalarini rasmiylashtirish va ularni Buyurtmachiga topshirishga qo‘yiladigan talablar

## **4-bo‘lim. Sifat kafolati**

- 4.1. Auditorlik xizmatlari sifatini kafolatlash ko‘lamiga qo‘yiladigan talablar
- 4.2. Auditorlik xizmatlari natijalari sifatini kafolat muddati

## **Texnik topshiriqga ilovalar**

## **1-bo‘lim. Umumiy ma’lumotlar**

### **1.1. Xizmatlarning to‘liq nomi**

“Kibernetikada innovatsiyalar IT-parki” MChJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiat) tashkil topgan 2021 yildan 2024 yil yakuniga qadar bo‘lgan davrdagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini, jumladan, bankdagi hisobvaraqlarning harakatini, qarzdorliklar bo‘yicha ma’lumotlarni haqqoniyligini, xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari, xodimlarga boshqa to‘lovlari, majburiy badallar va soliq to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblarni hamda soliq va moliyaviy hisobotlarini, shuningdek, Jamiatning barcha turdagi moliya xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq birlamchi hujjatlarini milliy standartlar asosida auditorlik tekshiruvini o‘tkazib, tegishli tartibda Yagona ta’sischi “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasiga auditorlik hisobotini taqdim etish.

### **1.2. Foydalanish maqsadlari**

Kibernetika inovatsiyalar IT-parki MCHJning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini auditorlik tashkilotlarini jalb qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini auditorlik tekshiruvi ishlarini olib borish.

### **1.3. Xarid qilish uchun asos**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining 2025-yil 24-martdagи 8-sonli bayonnomasi.

### **1.4. Buyurtmachi haqida ma’lumotlar**

Nomi: “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 20-uy.

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 20-uy.

Telefon: +998 71 203 55 11, E-mail: info@csec.uz, Veb-sayt: www.csec.uz

### **1.5. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish ro‘yxati va muddatlari**

Ijrochidan (potentsial xizmat ko‘rsatuvchi) auditorlik tekshiruvini o‘tkazish davrida amalga oshirilishi talab qilinadigan ishlar, xizmatlar ro‘yxati:

- bankdagi hisobvaraqlarning harakatini tekshirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzdorliklar bo‘yicha ma’lumotlarni haqqoniyligini tekshirish;
- xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari, xodimlarga bosrqa to‘lovlari, majburiy badallar va soliq to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblarni tekshirish;
- soliq va moliyaviy hisobotlarini shakllantirilishi va to‘lanishini tekshirish;
- barcha turdagи moliya xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq birlamchi hujjatlarini tekshirish;
- xaridlarni amalga oshirishda “Davlat xaridalri to‘g‘risida”gi Qonun talablariga rioya etilishini tekshirish;
- ustav fondini shakllantirish asoslarini tekshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tekshirish;
- xizmat safari xarajatlarini tekshirish;

- mehnat munosabatlariga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirishda amaldagi qonunchilikka rioya etilishini tekshirish;
- asosiy vosita va tovar moddiy boyliklarining kirim va chiqim hujjatlarni rasmiylashtirilishni tekshirish;
- asosiy vosita va tovar moddiy boyliklari inventarizatsiyadan o'tkazilganligi hamda inventarizatsi hujjatlarining rasmiylashtirishni tekshirish;
- rezidentlar va boshqa kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarni tekshirish;
- kassa va kassa operatsiyalarini tekshirish;
- bosh kitob ma'lumotlarini tekshirish;
- ishonch qog'ozlarni tekshirish;
- uzoq muddatli investitsiyalarni tekshirish;
- kapital qo'yilmalarni tekshirish;
- daromadlarni tekshirish;
- asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini tekshirish;
- davr xarajatlarini tekshirish;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni taxlil qilish;
- buyurtmachining talabiga ko'ra auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun talablari doirasidagi boshqa ish va xizmatlarni bajarish;
- auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik xulosasini va batafsil auditorlik hisobotini taqdim etish;
- auditorlik tekshiruvi birlamchi hujjatlar asosida to'liq o'tkazilganligi va to'g'riliqi bo'yicha kafolat berish.

Tekshiriladigan davr: 2021-yil 1-yanvardan 2024-yil 31-dekabrgacha.

Xizmatlarni ko'rsatish muddati: shartnoma imzolangan sanadan 60 ish kuni.

## **1.6. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish joyi**

Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish Buyurtmachining binosida amalga oshiriladi.

## **2-bo'lim. Shartlar va talablar**

### **2.1. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartlari**

Ijrochidan asosli va mustaqil pozitsiya kutiladi. Auditorlik tekshruvini o'tkazish va hisobot (xulosa) tuzish vaqtida Ijrochi Buyurtmachidan, shuningdek, har qanday uchinchi shaxsdan mustaqildir.

### **2.2. Ishtirokchilarga talablar**

Ijrochilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Ijrochining Auditorlar reestrida mavjudligi (auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliva vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning mavjudligi);

- auditorlik xizmatlarini ko'rsatishda kamida 20 yillik tajribaga ega bo'lishi;
- kamida 5 yil xalqaro auditorlik tarmog'ining to'liq a'zosi bo'lish;
- 2024-yilda auditorlik tashkilotlarining kadrlar salohiyati bo'yicha yuqori reyting ko'rsatkichiga ega bo'lishi;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda kasbiy javobgarlikni sug‘urtalash polisiga ega bo‘lishi;

- auditorlarning zarur malaka sertifikatlariga va o‘z malakalari bo‘yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan (asosiy ish joyi asosida faoliyat yuritayotgan) mutaxassislarga ega bo‘lishi;

- o‘tgan kalendar yili uchun hisoblangan soliqlar, yig‘imlar va biron-bir darajadagi byudjetlarga yoki davlat nobyudjet jamg‘armalariga boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzi bo‘lmasligi;

- to‘lovga qodir bo‘lishligi, bankrot bo‘lmasligi, tugatish jarayonida bo‘lmasligi, Tanlov ishtirokchining shartnomani bajarish uchun muhim bo‘lgan qismidagi mol-mulki xatlanmagan bo‘lishligi, uning xo‘jalik faoliyati to‘xtatilmagan bo‘lishligi kerak.

### **Quyidagi ishtirokchilar tanlovga qo‘yilmaydi:**

- yuqoridagi talablarga javob bermasa;

- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan mezonlarga javob bermasa;

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan bo‘lsa;

- Buyurtmachi bilan sud muhokamasi holatida bo‘lsa;

- qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik bosqichida bo‘lsa;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzlari mavjud bo‘lsa;

- tanlovda ishtirok etish uchun zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan bo‘lsa;

- takliflarni ko‘rib chiqish sanasida vijdonsiz ijrochilarning yagona reestrida joylashgan bo‘lsa.

## **3-bo‘lim. Xizmat ko‘rsatish natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi**

### **3.1. Kutilayotgan natija**

Auditorlik tekshiruvi doirasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha quyidagilarni o‘z ichiga olgan hisobot shakllantiriladi va Buyurtmachiga taqdim etiladi:

texnik topshiriq bo‘yicha bajarilgan ishlarning tahliliy qismi, moliyaviy xo‘jalik faoliyati qonunchilikka muvofiq amalga oshirilmagan holatlar aniqlanganligi;

natijalarni topshirish va qabul qilish tartibi Ijrochi va Buyurtmachi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3.2. Auditorlik xizmatlari natijalarini rasmiylashtirish va ularni Buyurtmachiga topshirishga qo‘yiladigan talablar**

Auditorlik xizmatlarining natijalari Buyurtmachiga yozma hisobotlar shaklida, shu jumladan import va mahalliy shartnomalar (kontraktlar) uchun alohida, tahliliy matn qismini, rejalar, grafiklar, jadvallar va boshqa matnli va grafik materiallarni o‘z ichiga olgan holda taqdim etiladi. Barcha materiallarni o‘zbek tilida uch asl nusxada qog‘oz ko‘rinishida, shuningdek, elektron shaklda (pdf, doc, xls va boshqalar) ikki nusxada elektron tashuvchilarda taqdim etilishi kerak. Auditorlik xulosasi auditorlik

tekshiruvini o‘tkazgan auditor(lar) va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan sahifama-sahifa imzolanishi kerak.

#### **4-bo‘lim. Sifat kafolati**

##### **4.1. Auditorlik xizmatlari sifatini kafolatlash ko‘lamiga qo‘yiladigan talablar**

Ijrochi quyidaglarni kafolatlaydi:

- auditorlik xizmatlarini ushbu texnik topshiriqda nazarda tutilgan talablarga muvofiqligini;
- auditorlik xizmatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rsatishni;
- tegishli tajribaga ega malakali mutaxassislarni jalg etishni;
- moliyaviy xo‘jalik faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirilganligi auditini o‘tkazishni;
- audit natijalari asosida tuzilgan hisobot milliy va xalqaro audit standartlari talablariga muvofiqligini;
- auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish tugagandan so‘ng, Buyurtmachiga xizmatlar ko‘rsatish ob’ektiga tegishli hujjatlarning to‘liq paketini, shu jumladan auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida foydalanilgan barcha materiallarni topshirishni;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegaralar doirasida kafolat majburiyatları yuzaga kelgan taqdirda xarajatlarning umumiyligini qoplashni;
- Buyurtmachi tomonidan oshkor qilingan ma’lumotlarning maxfiyligi, shuningdek, auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida tayyorlangan va/yoki foydalanilgan barcha materiallar va tahliliy ma’lumotlar, rejalar, diagrammalar, jadvallar va boshqa matn va grafik materiallarning maxfiyligini;
- Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlar, shu jumladan materiallar va tahliliy ma’lumotlar, rejalar, grafiklar, jadvallar va tayyorlangan va/yoki foydalanilgan boshqa matn va grafik materiallar Buyurtmachining 12eying12ctual mulki ekanligi va Buyurtmachining yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emasligini.

##### **4.2. Auditorlik xizmatlari natijalari sifatini kafolat muddati**

Ushbu Texnik topshiriqning 4.1-bandida ko‘rsatilgan kafolatlar muddati auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish tugagan kundan boshlab kamida 5 (besh) yil davomida amal qilishi kerak.

**Xarid komissiyasi tomonidan berilgan elon yuzasidan ko‘rsatilgan muddatda ishtirokchilardan elektron shaklda kelib tushgan takliflar komissiya tomonidan quyidagi mezonlar asosida baholanadi**

T.r.	Mezonlar	Baholash	Izoh
1	Tanlov hujjatlari bo‘yicha kafolat xati (1-shakl)	4 bal	
2	Tanlov ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma’lumot (2-shakl)	4 bal	
3	Davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida guvohnoma, litsenziya, xizmat ko‘rsatish uchun ruxsat etuvchi hujjatlar nusxalari	Bor (1 bal) /yo‘q	Agar taqdim etilmasa, ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
4	Korrupsiya holatlarini oldini olish to‘g‘risida ariza	4 bal	
5	Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda kasbiy javobgarlikni sug‘urtalash polisi nusxasi	10 bal	Har to‘liq 1 mlrd. so‘m uchun 1 bal (10 balgacha)
6	Davlat byudjetiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzi yo‘qligi to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotnomalar	Bor (1 bal)/yo‘q	Agar qarz bor bo‘lsa yoki taqdim etilmasa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
7	Auditorlarning zarur malaka sertifikatlariga va o‘z malakalari bo‘yicha kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan (asosiy ish joyi asosida faoliyat yuritayotgan) mutaxassislarga ega ekanligi to‘g‘risida ma’lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlar	20 bal	Talabga javob beruvchi har bir xodim uchun 2 bal (20 balgacha)
8	Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi tomonidan berilgan tanlov ishtirokchisining bankrotlik holatida emasligi to‘g‘risida ma’lumot	Ha (1 bal)/yo‘q (ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar bankrotlik holatida bo‘lsa yoki taqdim etilmasa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
9	Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatishda tajribaga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar	20 bal	Har to‘liq 1 yil uchun 1 bal (20 balgacha)
10	Xalqaro auditorlik tarmog‘ining to‘liq a’zosi ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar	14 bal	A’zoligi uchun 1 bal, har to‘liq 1 yil uchun 1 baldan qoshiladi (14 balgacha)
11	2023 yil yakunlari bo‘yicha auditorlik tashkilotlari renkingidagi yuqori o‘rinda bo‘lishi (renking mezonlari bo‘yicha eng yuqori o‘rin inobatga olinadi)	21 bal	Renking ro‘yxatida borligi uchun 1 bal. Qo‘sishcha ballar: 1-o‘rin uchun – 20 bal, keyingi har bir o‘rin uchun avvalgisidan 2 baldan kamayib boradi (20 balgacha)
<b>Jami</b>		<b>100 bal</b>	

Izoh: Ishtirokchilar uchun eng kam o‘tish bali – 51 balni tashkil etadi.



**1-SHAKL**  
**TANLOV BUYURTMASINI TA'MINLASH KAFOLATI**

(tanlov ishtirokchisi tashkilotning nomi)

kelgusida tanlov talabgori deb ataluvchi,

\_\_\_\_\_ tomonidan o'tkazilayotgan

(buyurtmachi tashkilotning nomi)

(Tanlov predmetining nomi)

bo'yicha tanlovda ishtirok etish uchun o'z tanlov taklifini taqdim etganligini inobatga olib, ushbu bilan ma'lum qilinadiki,

(yuridik manzil)

\_\_\_\_\_ manzili bo'yicha qayd etilgan ofisga ega, kelgusida "BANK" deb ataluvchi

\_\_\_\_\_ ning tanlov

(bank nomi)

talabgori oldida \_\_\_\_\_

(raqamda va yozuv bilan  
summa va valyuta turi  
ko'rsatilsin)

miqdordagi majburiyati mavjud bo'lib, u bo'yicha to'lov ko'rsatilgan buyurtmachiga to'laligicha va o'z vaqtida amalga oshiriladi.

Majburiyat Bank tomonidan kafolatlangan.

Majburiyat shartlari:

Agar:

1) Talabgor o'z taklifini tanlov takliflarini qabul qilish muddati tugagandan keyin qaytarib olsa;  
2) Talabgor uzining taklifi Buyurtmachi tomonidan qabul qilingani haqida xabarnoma olib, ushbu taklifni amal qilish muddati davomida tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan talablar asosida pudrat shartnomasini tuzishdan bosh tortsa yoki tuzolmasa, bu hollarda bank buyurtmachiga, uni birinchi yozma talabidanok, buyurtmachidan ushbu so'rovni asoslantirishni talab etmasdan, yuqorida ko'rsatilgan summani quyidagi shartlar bilan to'lash majburiyatini oladi:

a) Agar o'z so'rovida Buyurtmachi ushbu summa unga tegishliligi ko'rsatilgan holatlarning ikkisidan biri yoki har biri yuzaga kelgani bilan bog'liq ekanligini, yuzaga kelgan holat yoki holatlarni aniqlashtirgan holda, ko'rsatsa;  
b) "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasida tuzilgan shartnomalariga, obyekt qurilishini bajarish va yakunlashga to'sqinlik qiluvchi ishlar hajmiga va mazmuniga o'zgartirish kiritilmagan bo'lsa.

Ushbu kafolat tanlov taklifini ochish kunidan \_\_\_\_\_ kun davomida ("\_\_\_\_\_" 20 y.) kuchda qoladi va ushbu bilan bog'liq har bir so'rov yuqorida ko'rsatilgan muddat o'tmasdan Bankka berib yuboriladi.

Ko'rsatilgan bankning umumiyligi muhri bilan tasdiqlangan.

**Boshqaruvchi**

**(F.I.O)**

**Bosh hisobchi**

**(F.I.O)**

**Izoh:** ushbu Kafolat bosh bank tomonidan idora blankasida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

**2-shakl**  
**(qatnashchining firma blankasida)**

№\_\_\_\_ va \_\_\_\_ sana

№ -lot

**Qatnashchi to'g'risida umumiу ma'lumot shakli**

Tanlov ishtirokchisining nomi: \_\_\_\_\_

Manzili va telefon raqami: \_\_\_\_\_

Faks: \_\_\_\_\_

Yuridik maqomi: \_\_\_\_\_

Tashkil etilgan joyi va sanasi: \_\_\_\_\_

Faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashuvi: \_\_\_\_\_

Ofisi, joylashgan joyi va O'zbekistonidagi filiallari: \_\_\_\_\_

Doimiy va vaqtinchalik ishlovchi xodimlari umumiу soni, jumladan:

Doimiy ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Vaqtinchalik ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar soni, jumladan:

Doimiy ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Vaqtinchalik ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Tanlov qatnashchi si korxonasining tashkiliy tuzilmasi, jumladan :

- korxonaning tashkiliy tuzilmasi (filiallari, hududiy bo'linmalari va boshqalar)

- ishlab chiqarish joylari mavjudligi (jami m<sup>2</sup>, xususiy yoki ijara)

Taklifga imzo chekuvchi lavozimi: (*Taklifga imzo qo'ygan shaxsning lavozimini ko'rsating*)

Imzo: (*Yuqorida nomi va lavozimi ko'rsatilgan shaxs imzosini qo'ying*)

Ushbu taklif (*Qatnashchining to'liq nomini ko'rsating*) ko'rsatmasi va nomidan tegishli vakolat bilan imzolandi.

Sana: (*taklifga imzo qo'yilgan sanani ko'rsating*)

### **III. NARX QISMI**

1	Narxning yuqori chegarasi	260 000 000 so‘m QQS bilan
2	Moliyalashtirish manbai	“Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining o‘z daromadlari Oldindan to‘lov – 30%
3	To‘lov shartlari	Qolgan qismi – 70% Shartnomaga muvofiq ishlarning barcha bosqichlari yakunlanganidan so‘ng to‘lanadi
4	To‘lov valyutasi	o‘zbek so‘mi
5	Xizmatni ko‘rsatish muddatlari	shartnoma imzolangan sanadan 60 ish kuni
6	Tanlov taklifning amal qilish muddati	Tanlov takliflari topshirilgan kundan boshlab kamida 90 kun